I. XIZMATLAR

2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida 14 878 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

2024- yil 1- oktabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 12 579 tasi yoki 84,5 foizi kichik biznes sub‘ektlarini tashkil etadi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo‘yicha hajmi 13 802,1 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o‘sish 111,2 foizni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va o‘sish sur‘atlari

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)*	*O‘sish sur‘ati, % da*	*shundan,*		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Ulushi, % da*
Jami	**13 802,1**	**111,2**	**12 749,1**	**109,2**	**7 923,4**	**113,5**	**57,4**
Navoiy sh.	4 118,6	111,5	25 236,2	108,0	1 521,3	120,3	36,9
Zarafshon sh.	1 252,1	109,5	14 037,3	107,0	683,2	114,4	54,6

davomi

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)*	*O‘sish sur‘ati, % da*	*shundan,*		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Ulushi, % da*
G‘ozg‘on sh.	29,6	113,1	3 177,7	111,9	17,5	114,6	59,3
Karmana t.	1 422,3	113,5	10 166,3	111,1	898,0	111,2	63,1
Konimex t.	219,5	112,6	5 886,0	112,9	187,4	111,0	85,4
Qiziltepa t.	889,7	111,7	5 461,8	109,8	675,1	110,7	75,9
Navbahor t.	550,8	112,0	4 529,2	110,2	422,9	112,7	76,8
Nurota t.	395,3	110,8	4 392,4	109,1	337,7	110,1	85,4
Tomdi t.	102,0	110,6	6 623,2	112,7	90,6	110,2	88,8
Uchquduq t.	322,6	111,4	8 187,9	110,9	271,5	111,0	84,2
Xatirchi t.	717,9	112,3	3 348,4	110,5	581,5	110,7	81,0



Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

	mlrd. so‘m	*o‘sish sur‘ati, % da*	*yakunga nisbatan, % da*
Jami xizmatlar	**13 802,1**	**111,2**	**100,0**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	443,7	118,6	3,2
moliyaviy xizmatlar	2 449,3	118,3	17,8
transport xizmati	1 674,0	115,5	12,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 521,1	116,6	11,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 670,2	109,0	26,6
savdo xizmatlari	3 026,5	109,6	21,9
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	256,3	127,5	1,9
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	413,5	101,5	3,0
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	195,2	105,1	1,4
ijara xizmatlari	126,7	100,2	0,9
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	206,8	105,9	1,5
boshqa shaxsiy xizmatlar	314,8	108,8	2,3
me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	499,2	99,6	3,6
boshqa turdagi xizmatlar	525,9	107,3	3,8

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari
(2023- yil yanvar- sentabriga nisbatan, % da)



Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (127,5), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,6%), moliyaviy xizmatlar (118,3 %), transport xizmatlari (115,5 %), savdo xizmatlari (109,6 %) va shaxsiy xizmatlar (108,8 %)da o‘sish sur‘ati yuqori bo‘ldi.

Xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi

(2024- yil yanvar- sentabr oylari, % da)

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,6 %), savdo (21,9 %), moliyaviy (17,8 %), transport (12,1 %) hamda boshqa xizmatlar (3,8%)ga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

	ming so‘m	*O‘sish sur‘ati, % da*
Jami xizmatlar	**12 749,1**	**109,2**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	409,8	111,0
moliyaviy xizmatlar	2 262,4	111,4
transport xizmati	1 546,3	115,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 405,0	117,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 390,2	111,3
savdo xizmatlari	2 795,6	104,4

davomi

	ming so‘m	*O‘sish sur‘ati, % da*
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	236,8	121,5
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	382,0	94,4
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	180,4	105,5
ijara xizmatlari	117,0	103,9
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	191,0	106,0
boshqa shaxsiy xizmatlar	290,8	112,1
me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	461,1	103,2
boshqa turdagi xizmatlar	485,8	109,0

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 12 749,1 ming so‘mni yoki 2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 109,2 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘atlari, % da



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari (3 390,2 ming so‘m), savdo xizmatlari (2 795,6 ming so‘m) hamda moliyaviy xizmatlar (2 262,4 ming so‘m) yuqori ulushni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (121,5), transport xizmatlari (115,9%), shaxsiy xizmatlar (112,1 %), moliyaviy xizmatlar (111,4%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (111,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,0 %) va boshqa xizmatlar (109,0 %)da o‘sish sur‘ati yuqori bo‘ldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m



Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Navoiy shahri yetakchi o‘rinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 25 236,2 ming so‘mga yetdi. Zarafshon shahar (14 037,3 ming so‘m) va Karmana (10 166,3 ming so‘m) tumanida ham boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko‘paygan. G‘ozg‘on shahar (3 177,7 ming so‘m), Xatirchi (3 348,4 ming so‘m) va Nurota (4 392,4 ming so‘m) tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamligini ko‘rishimiz mumkin.

Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo‘lgan sohalar

T/r	*Iqtisodiy faoliyat turlari*	*Hajmi mlrd. so‘m*	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Jamiga nisbatan ulushi, % da*
	Jami – xizmatlar	**13 802,1**	**111,2**	**100,0**
1	**Yashash va ovqatlanish xizmatlari**	**3 670,2**	**109,0**	**26,6**
	shundan:			
	Yashash bo‘yicha xizmatlar	93,4	97,9	0,7
	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar etkazish bo‘yicha xizmatlar	3 576,8	109,3	25,9
2	**Moliyaviy xizmatlar**	**2 449,3**	**118,3**	**17,8**
	shundan:			
	Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	2 328,9	129,0	16,9
	Sug‘urtalash, qayta sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha xizmatlardan tashqari	93,5	100,7	0,7
	Moliyaviy va sug‘urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar	26,9	84,0	0,2
3	**Transport xizmatlari**	**1 674,0**	**115,5**	**12,1**
	shundan:			
	Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar	1 529,3	117,0	11,0
	Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari	134,3	101,2	1,0
	Pochta va kurerlik xizmatlari	10,4	100,5	0,1
4	**Savdo xizmatlari**	**3 026,5**	**109,6**	**21,9**
	shundan:			
	shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar; avtomobillar va motosikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	289,4	112,4	2,1
	Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)	333,1	105,1	2,4
	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar	2 404,0	109,8	17,4
5	**Boshqalar**	**2 982,1**	**107,3**	**21,6**

2024- yil yanvar- sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida savdo xizmatlarining tarkibi



Huddi shunday, savdo xizmatlaring hajmi 3 026,5 mlrd. so‘mga yetib, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 21,9 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 79,4 foizini, avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (ularni ta‘mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda) xizmatlari esa 9,6 foizni, ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) 11,0 foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi



“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o‘xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida yashash va oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar mavjud bo‘lib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ustunlik qildi – 97,5 foiz.

Yashash bo‘yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



2024- yil yanvar- sentabr oylarida ijara xizmatlari

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **126,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar-sentabr oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **74,1** % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida ijara xizmatlari dinamikasi



2024- yil yanvar- sentabr oylarida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar



Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo‘yicha xizmatlar **68,0** foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning
2023-yilning mos davrga nisbatan o‘sish sur‘atlari



2024- yil yanvar- sentabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, *mlrd. so‘m*



2024 - yil yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **1,4** %ni tashkil etdi.